



**Davlat maktabgacha ta'lif tashkilotlarida sog'gom ovqatlantirishni autsorsing usulida tashkil etish bo'yicha tanlov komissiyasi yig'ilishining 16-son bayonidan
KO'CHIRMA**

2021 yil 10 noyabr

Toshkent shahar

Raislik qildi: **B.Onorboyev** - Maktabgacha ta'lif vazirining birinchi o'rinosari, tanlov komissiya raisi

Qatnashdilar: **S.Mirzakarimov** – maktabgacha ta'lif tashkilotlarida sog'gom va xavfsiz ovqatlantirishni ta'minlash bo'limi boshlig'i, rais o'rinosari

Tanlov komissiyasi a'zolari: U.Muxiddinova (D.Xasanova), X.Buriyev, B.Xidirboyev, Sh.Pardayev, A.Agasiyev, Sanitariya-epidemiologik osoyishtalik va jamoat salomatligi xizmati mutaxassisi R.Kasimov, O'zbekiston Oshpazlar uyushmasi mutaxassisi T.Umaraliyev;

Buxoro viloyati Maktabgacha ta'lif boshqarmasi studiyasida, boshqarma boshlig'i M.Rajapov, Maktabgacha ta'lif tashkilotlarida sog'gom va xavfsiz ovqatlantirishni ta'minlash bo'limi xodimi M.Jo'rayeva, tuman (shahar) maktabgacha ta'lif bo'limlari boshliqlari (*ro'yxat bo'yicha*).

Tanlov takliflari 2021 yil 9 noyabr kuni soat 9-00 dan 13-00 gacha ko'rib chiqildi va baholandi.

KUN TARTIBI:

Buxoro viloyati Maktabgacha ta'lif boshqarmasi davlat maktabgacha ta'lif tashkilotlarida sog'gom ovqatlantirishni autsorsing usulida tashkil etish bo'yicha tanlov jarayonini o'tkazish to'g'risida

(B.Onorboyev, S.Mirzakarimov..., B.Onorboyev)

Kun tartibidagi masala yuzasidan Maktabgacha ta'lif vazirining birinchi o'rinosari, tanlov komissiya raisi B.Onorboyev tomonidan davlat maktabgacha ta'lif tashkilotlarida sog'gom ovqatlantirishni autsorsing usulida tashkil etish bo'yicha tanlov jarayonini o'tkazish yuzasidan quyidagilar ta'kidlandi.

Vazirlar Mahkamasining "Davlat maktabgacha ta'lif tashkilotlarida sog'gom ovqatlantirish tizimini takomillashtirishning qo'shimcha chora-tadbirlari to'g'risida" 2021 yil 30 iyundagi 407-sod qarori ijrosini ta'minlash maqsadida Maktabgacha ta'lif vazirining "Davlat maktabgacha ta'lif tashkilotlarida sog'gom ovqatlantirish tizimini takomillashtirishning qo'shimcha chora-tadbirlari to'g'risida" 2021 yil 5 iyuldag'i

123-sodli buyrug'i qabul qilingan.

Yuqorida keltirilgan topshiriqlar ijrosini ta'minlash maqsadida Maktabgacha ta'lim vazirligi tomonidan respublikada **1576** ta davlat maktabgacha ta'lim tashkilotlarida bolalarni ovqatlantirishni autsorsing usulida tashkil etish uchun **342** ta lotlar bo'yicha, **xususan Buxoro viloyati 16 ta lotlar (41-56 lotlar) bo'yicha 59 ta davlat maktabgacha ta'lim tashkilotlari uchun tanlov e'lon qilingan.**

Ushbu tanlov matni Maktabgacha ta'lim vazirligining veb-sahifasiga 2021 yil 6 oktabr kuni joylashtirilgan.

Tanlovda ishtirok etish uchun joriy yilning 29 oktabr holatiga respublika bo'yicha jami **310** nafar, **xususan Buxoro viloyati bo'yicha 13 nafar tadbirkorlar tomonidan hujjatlar kelib tushgan.**

Tanlov komissiyasining raisi tomonidan tanlovnini o'tkazish jarayoni Vazirlar Mahkamasining 2021 yil 30 iyundagi 407-son **qarori bilan tasdiqlangan Tanlov hujjatlari asosida tashkil etilishi ta'kidlab o'tildi hamda ishtirokchilarni tanlovnini o'tkazish tartibi bilan tanishtirildi.**

Buxoro viloyatida tanlovga qo'yilgan 16 ta lotlar (41-56 lotlar) bo'yicha 59 ta davlat maktabgacha ta'lim tashkilotlari hamda tanlovda ishtirok etish uchun hujjat taqdim etgan 13 nafar tadbirkorlar to'g'risida ma'lumot berildi (**1- va 2-ilovalar**).

Tanlovga qo'yilgan 47,49,50,51,52,53,54,55,56 lotlarga umuman taklif kelib tushmaganligi sababli lotlar o'ynalmadi.

Tanlov komissiyasi tomonidan Vazirlar Mahkamasining 2021 yil 30 iyundagi 407-son qarori bilan tasdiqlangan Tartibiga muvofiq 11 ta talabgor korxonalarining tashqi konvert hujjatlari 1-ilovasi 1, 2, 3, 4, 5, 6-shakllariga mosligi qatian o'rganilib chiqildi.

Malaka tanlovi natijalariga ko'ra, **7 nafar** ishtirokchilarning hujjatlari Tartibda belgilangan talablarga javob bermasligi aniqlandi hamda Tartib talablariga mos ravishda hujjatlari mavjud bo'lgan **6 nafar** ishtirokchilar tanlovning ichki konvert hujjatlari o'rganilib ishtirok etishlari maqsadga muvofiq, deb topildi.

Malaka tanlovi natijalarini mazkur bayonning **3-ilovasida** keltirilgan.

Tanlov komissiyasining qarori bilan malaka talabidan o'tmagan tanlov ishtirokchilari tanlovda qatnashishdan chetlashtirildi.

Tanlov komissiyasi tomonidan tanlovning **6 nafar** ishtirokchilarning "Ichki hujjatlari", ya'ni texnik va tijoriy takliflari o'rganildi va baholandi.

Texnik va tijoriy takliflarni baholash natijalarini mazkur bayonning **4-ilovasida** keltirilgan.

Buxoro viloyatidagi davlat maktabgacha ta'lim tashkilotlarida sog'lom ovqatlantirishni autsorsing usulida tashkil etish bo'yicha o'tkazilgan tanlov natijalarini asosida Tanlov komissiyasi

QAROR QILADI:

1. Tanlov natijalariga asosan:

41-lot bo'yicha

"**JONDOR GO`SHT TA`MINOT**" MChJ 95 **ball** bilan 1-o`rin (Ромитан тумани "Фазбирон" МФЙ Фазбирон қишлоғи 244-үй) tanlov g`olib;

"**MAZZALI TAOM TAYYORLOV**" ChP 70 **ball** bilan 2-o`rin (Ромитан тумани "Фазбирон" МФЙ Фазбирон қишлоғи 238-үй) zahiradagi g`olib deb hisoblansin;

42-lot bo`yicha

"**MAZZALI TAOM TAYYORLOV**" ChP 90 **ball** bilan 1-o`rin (Ромитан тумани "Фазбирон" МФЙ Фазбирон қишлоғи 238-үй) tanlov g`olib;

"**JONDOR GO`SHT TA`MINOT**" MChJ 75 **ball** bilan 2-o`rin (Ромитан тумани "Фазбирон" МФЙ Фазбирон қишлоғи 244-үй) zahiradagi g`olib deb hisoblansin;

44-lot bo`yicha

"**ABDUMALIK BARAKA SERVIS**" MChJ 80 **ball** bilan 1-o`rin (*Бухоро шаҳар Пиридасгир* МФЙ Пиридасгир кўчаси) tanlov g`olib;

"**JONDOR GO`SHT TA`MINOT**" MChJ 70 **ball** bilan 2-o`rin (Ромитан тумани "Фазбирон" МФЙ Фазбирон қишлоғи 244-үй) zahiradagi g`olib deb hisoblansin.

46-lot bo`yicha

"**MAZZALI TAOM TAYYORLOV**" ChP 70 **ball** bilan 1-o`rin (Ромитан тумани "Фазбирон" МФЙ Фазбирон қишлоғи 244-үй) tanlov g`olib;

"**JONDOR GO`SHT TA`MINOT**" MChJ 65 **ball** bilan 2-o`rin (Ромитан тумани "Фазбирон" МФЙ Фазбирон қишлоғи 238-үй) zahiradagi g`olib deb hisoblansin;

48-lot bo`yicha

"**RADOST GRAND**" MChJ 80 **ball** bilan 1-o`rin (Ромитан тумани "Фазбирон" МФЙ Фазбирон қишлоғи 244-үй) tanlov g`olib;

"**YORQIN TONG**" MChJ 30 **ball** bilan 2-o`rin (Шофиркон тумани "Қалмоқон" МФЙ Навоий кўчаси) zahiradagi g`olib deb hisoblansin;

2. Tanlov g`oliblari:

41-lot bo`yicha

"**JONDOR GO`SHT TA`MINOT**" MChJ yillik **14 foiz** ustama bilan xizmat ko`rsatish orqali **296 mln. so`m** investitsiya;

42- lot bo`yicha

"**MAZZALI TAOM TAYYORLOV**" ChP yillik **14 foiz** ustama bilan xizmat ko`rsatish orqali **479 mln. so`m** investitsiya;

44- lot bo`yicha

"**ABDUMALIK BARAKA SERVIS**" MChJ yillik **15 foiz** ustama bilan xizmat ko`rsatish orqali **302 mln. so`m** investitsiya;

46- lot bo`yicha

"**MAZZALI TAOM TAYYORLOV**" ChP yillik **16 foiz** ustama bilan xizmat ko`rsatish orqali **130 mln. so`m** investitsiya kiritish majburiyatları yuklatilsin.

48- lot bo`yicha

"**RADOST GRAND**" MChJ yillik **19,5 foiz** ustama bilan xizmat ko`rsatish orqali **81 mln. so`m** investitsiya kiritish majburiyatları yuklatilsin.

3. Investitsiya mablag`lari birinchi navbatda Autsorser kompaniyasi tomonidan xizmat ko`rsatilayotgan davlat maktabgacha ta`lim tashkilotlarining moddiy-texnika bazasini mustahkamlashga yo`naltiriladi.

4. Tanlov g‘oliblari tomonidan investitsiya majburiyatlarini bajarish muddatlari kechiktirilgan holatda tuman (shahar) maktabgacha ta’lim bo‘limlari tomonidan autsorsing xizmatini ko‘rsatish bo‘yicha shartnomalar bekor qilinadi.

Bunda, tanlov g‘oliblari tomonidan shartnoma bekor qilinguncha qadar kiritilgan investitsiya mablag‘lari qaytarib berilmaydi.

5. Buxoro viloyati maktabgacha ta’lim boshqarmasi M.Rajapovga, Buxoro shahar, Kogon, Shofirkon tumanlari maktabgacha ta’lim bo‘limi boshlig‘iga quyidagilar yuklatilsin:

2022 yilning 1 yanvardan tanlovda g‘olib bo‘lgan tadbirkorlar bilan **bir yil muddatga** shartnomalar imzolash hamda tadbirkorlar tomonidan autsorsing xizmatini ko‘rsatish uchun taklif etilgan ustama miqdori, ular tomonidan kiritilishi belgilangan investitsiya majburiyatlarini miqdori va muddatlari aniq ko‘rsatilgan bo‘lishi lozim;

har chorakda autsoring xizmati ko‘rsatilayotgan maktabgacha ta’lim tashkilotlarida Kuzatuv kengashlari tomonidan ota-onalar o‘rtasida so‘rovnomalar o‘tkazish;

tarbiyalanuvchilarni ovqatlantirish jarayonida Autsorser korxona tomonidan kamchiliklarga yo‘l qo‘yish holatlari aniqlanganda Maktabgacha ta’lim vazirligining Respublika komissiyasiga Autsorser faoliyati bo‘yicha xulosa kiritish;

tanlov jarayonida sanitariya qoidalari, normalari va gigiyena normativlariga mos sharoitlarni yaratish bo‘yicha Autsorser tomonidan taklif qilingan investitsiya majburiyatlarini belgilangan muddatlarda bajarilishini doimiy monitoring qilish va talab qilish;

Autsorser tomonidan kiritilgan investitsiya majburiyatlarini bo‘yicha tovar-moddiy boyliklarni o‘rnatalgan tartibda ro‘yxatdan o‘tkazish;

Autsorser kompaniya tomonidan ko‘rsatilgan xizmatlar uchun mablag‘larni tuman (shahar) maktabgacha ta’lim bo‘limlari tomonidan o‘z vaqtida o‘tkazib berilishini ta’minalash;

har chorak yakunida davlat maktabgacha ta’lim tashkilotlarida autsorsing usulida bolalarni sog‘lom ovqatlantirishni tashkil etish holati yuzasidan tahliliy ma’lumotlarni O‘zbekiston Respublikasi Maktabgacha ta’lim vazirligining Maktabgacha ta’lim tashkilotlarida sog‘lom va xavfsiz ovqatlantirishni ta’minalash bo‘limiga kiritib borish;

Agarda autsorser tomonidan tanlovdagi takliflariga ko‘ra belgilangan muddatlarda investitsiya mablag‘lari to‘liq kiritilganda, o‘z faoliyatida sanitariya qoidalari, normalari va gigiyena normativlariga muvofiq amalga oshirganda, kuzatuv kengashi va ota-onalar tomonidan e’tirozlar bo‘limganda, Tanlov komissiyasiga shartnoma muddati kelgusi yillarga uzaytirilishi bo‘yucha takliflar kirtsin;

7. Belgilab qo‘yilsinki, Tanlov g‘oliblari tomonidan belgilangan muddatlarda shartnomalar imzolanmagan holatda, shuningdek, tanlov g‘olib zimmasiga yuklatilgan investitsiya majburiyatlarining o‘z muddatida bajarmasligi natijasida shartnoma bekor qilingan holatda zaxiradagi g‘olib (tanlov natijalariga ko‘ra g‘olibdan keyingi o‘rinni olgan) ishtirokchi bilan shartnoma imzolash masalasi Respublika tanlov komissiyasining tegishli qarori bilan amalga oshiriladi.

8. Maktabgacha ta'lif tashkilotlarida sog'lom va xavfsiz ovqatlantirishni ta'minlash bo'limi boshlig'i S.Mirzakarimov:

har chorakda mazkur bayon ijrosi yuzasidan vazirlik rahbariyatiga axborot kiritish;

autsorsing usulida ovqatlantirishni tashkil etayotgan korxonalar tomonidan tarbiyalanuvchilarni ovqatlantirishni tashkil etish darajasini muntazam ravishda o'rganib borish;

o'rganishda aniqlangan kamchiliklar yuzasidan zudlik bilan rahbariyatga bildirgi kiritish vazifalari topshirilsin.

tanlov g'oliblari zimmasiga yuklatilgan investitsion majburiyatlarni o'z muddatida bajarilishi hamda tuman (shahar) maktabgacha ta'lif bo'limlari tomonidan ushbu mablag'lardan maqsadli va samarali foydalanishini ta'minlash yuzasidan doimiy monitoring o'rnatish;

har chorak yakuni bo'yicha tanlov g'oliblari tomonidan moliyaviy majburiyatlarning bajarilishi bo'yicha tahliliy ma'lumotni Respublika tanlov komissiyasiga taqdim etib borish vazifalari yuklatilsin.

9. Mazkur bayon ijrosini O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha ta'lif vazirining Maktabgacha ta'lif tashkilotlarida sog'lom va xavfsiz ovqatlantirishni ta'minlash bo'limi boshlig'i S.Mirzakarimov zimmasiga yuklatilsin.

Yig'ilish kotibi



A.Agasiev

Buxoro viloyatida tanlovga qo‘yilgan lotlardagi davlat maktabgacha ta’lim tashkilotlari to‘g‘risida ma’lumot

| Lot raqami | Tuman (shahar) nomi | Maktabgacha ta’lim tashkiloti raqami |
|-------------------|----------------------------|---|
| 41-lot | Buxoro shahar | 10,16,19 |
| 42-lot | Buxoro shahar | 23,25,43,46,86 |
| 43-lot | Buxoro shahar | 54,61,78,82 |
| 44-lot | Buxoro shahar | 50,63,74,77 |
| 45-lot | Buxoro shahar | 34,55,59,71,87 |
| 46-lot | Kogon tumani | 8,11 |
| 47-lot | Qorovulbozor tumani | 1,8 |
| 48-lot | Shofirkon tumani | 12,21,22,26,28,29 |
| 49-lot | Vobkent tumani | 30,31 |
| 50-lot | Jondor tumani | 2,8,11,26,30,32 |
| 51-lot | G‘ijduvon tumani | 44,78,79 |
| 52-lot | Buxoro tumani | 6,8,12,46 |
| 53-lot | Kogon shahar | 7,18 |
| 54-lot | Peshku tumani | 8,26 |
| 55-lot | Qorako‘l tumani | 14,8,17,20 |
| 56-lot | Romiton tumani | 1,4,9,14,23 |

**Buxoro viloyatida davlat mактабгача та'lim tashkilotlarida autsorsing faoliyatini
yuritish maqsadida tanlovda ishtirok etish uchun hujjat topshirgan tadbirkorlar
to‘g‘risida ma’lumot**

| T/r | Korxona nomi |
|------------|---|
| 1 | "ABDUMALIK BARAKA SERVIS" MChJ |
| 2 | "BUX OZIQ-OVQAT TAYYOR" MChJ |
| 3 | "JASMINA MUXRIDDIN GULSHODA" MChJ |
| 4 | "YORQIN TONG" MChJ |
| 5 | “Pontem U.A” MChJ |
| 6 | “RADOST GRAND” MChJ |
| 7 | UB HANDE ISHUS |
| 8 | "BUXORO KOMILSHOX SAVDO" MChJ |
| 9 | "JONDOR GO`SHT TA`MINOT" MChJ |
| 10 | "KONKORD INTERNATIONAL BUSINESS GROUP" MChJ |
| 11 | "MAZZALI TAOM TAYYORLOV" ChP |
| 12 | БЕХРУЗ ТИЖОРАТ САВДО |
| 13 | БУХОРО ТАЙЁРЛОВ ТАЪМИНОТ |

**Tanlov komissiyasi tomonidan o‘tkazilgan malaka tanlovi natijalari to‘g‘risida
ma’lumot**

| | | |
|---|-----------------------------------|---|
| 1 | "ABDUMALIK BARAKA SERVIS" MChJ | Birinchi bosqich malaka talablari bo‘yicha hamma hujjatlar taqdim etildi. O‘tdi. |
| 2 | "BUX OZIQ-OVQAT TAYYOR" MChJ | Birinchi bosqich malaka talablari bo‘yicha hamma hujjatlar taqdim etildi. O‘tdi. |
| 3 | "JASMINA MUXRIDDIN GULSHODA" MChJ | 1.Vazirlar Mahkamasining 2021 yil 30 iyundgi 407-sun qarori bilan tasdiqlangan ilovasi “Davlat maktabgacha ta’lim tashkilotlarida autsorsing usulida sog‘lom ovqatlantirishni tashkil etish tartibi to‘g‘risida”gi nizomning 15.1-bandiga ko‘ra umumiy ovqatlanish xizmatida kamida bir yillik tajribaga ega emas. O‘tmadi. |
| 4 | "YORQIN TONG" MChJ | Birinchi bosqich malaka talablari bo‘yicha hamma hujjatlar taqdim etildi, O‘tdi. |
| 5 | “PONTEM U.A” MChJ | Vazirlar Mahkamasining 2021 yil 30 iyundgi 407-sun qarori bilan tasdiqlangan “Davlat maktabgacha ta’lim tashkilotlarida autsorsing usulida ovqatlantirishni tashkil etish uchun tanlov o‘tkazish to‘g‘risida”gi Tartibining 6-shakliga ko‘ra Tashkilotning xodimlari injener-texnolog(diplom, tibbiy ko‘rikdan o‘tganligi, tashkilotda ishlayotganligi to‘g‘risida buyruqdan ko‘chirma), <u>oshpazlar haqida (diplom, razryad, sertifikat, tibbiy ko‘rikdan o‘tganligi, tashkilotda ishlayotganligi to‘g‘risida buyruqdan ko‘chirma</u>) (injener-texnolog, oshxona xodimlari) haqida ma’lumotlar taqdim etilmagan. O‘tmadi |
| 6 | “RADOST GRAND” MChJ | Birinchi bosqich malaka talablari bo‘yicha hamma hujjatlar taqdim etildi. O‘tdi. |
| 7 | UB HANDE ISHUS | Vazirlar Mahkamasining 2021 yil 30 iyundgi 407-sun qarori bilan tasdiqlangan “Davlat maktabgacha ta’lim tashkilotlarida autsorsing usulida ovqatlantirishni tashkil etish uchun tanlov o‘tkazish to‘g‘risida”gi Tartibining 6-shakliga ko‘ra Tashkilotning xodimlari injener-texnolog(diplom, tibbiy ko‘rikdan o‘tganligi, tashkilotda ishlayotganligi to‘g‘risida buyruqdan ko‘chirma), <u>oshpazlar haqida (diplom, razryad, sertifikat, tibbiy ko‘rikdan o‘tganligi, tashkilotda ishlayotganligi to‘g‘risida buyruqdan ko‘chirma</u>) (injener-texnolog, oshxona xodimlari) haqida ma’lumotlar taqdim etilmagan. O‘tmadi |

| | | |
|----|---|---|
| 8 | "BUXORO KOMILSHOX SAVDO" MChJ | 1. Vazirlar Mahkamasining 2021 yil 30 iyundgi 407-sodan qarori bilan tasdiqlangan 2 ¹ -ilova 38-bandida konvertda tegishli hujjatlar tanlov hujjatlari talablariga mos rasmiylashtirilmagan yoki belgilangan tartibdagi hujjatlar taqdim qilinmagan, Komissiya ushbu talabgorning taklifini ko'rib chiqilmadi O'tmadi. |
| 9 | "JONDOR GO'SHT TA'MINOT" MChJ | Birinchi bosqich malaka talablari bo'yicha hamma hujjatlar taqdim etildi. O'tdi. |
| 10 | "KONKORD INTERNATIONAL BUSINESS GROUP" MChJ | Vazirlar Mahkamasining 2021 yil 30 iyundgi 407-sodan qarori bilan tasdiqlangan "Davlat mактабгача та'лим ташкilotlarida autsorsing usulida ovqatlantirishni tashkil etish uchun tanlov o'tkazish to'g'risida"gi Tartibining 6-shakliga ko'ra Tashkilotning xodimlari injener-texnolog(diplom, tibbiy ko'rikdan o'tganligi, tashkilotda ishlayotganligi to'g'risida buyruqdan ko'chirma), <u>oshpazlar haqida (diplom, razryad, sertifikat, tibbiy ko'rikdan o'tganligi, tashkilotda ishlayotganligi to'g'risida buyruqdan ko'chirma)</u> haqida ma'lumotlar taqdim etilmagan. O'tmadi |
| 11 | "MAZZALI TAOM TAYYORLOV" ChP | Birinchi bosqich malaka talablari bo'yicha hamma hujjatlar taqdim etildi. O'tdi. |
| 12 | "BEXRUZ TIJORAT SAVDO" | 1. Vazirlar Mahkamasining 2021 yil 30 iyundgi 407-sodan qarori bilan tasdiqlangan 2 ¹ -ilova 38-bandida konvertda tegishli hujjatlar tanlov hujjatlari talablariga mos rasmiylashtirilmagan yoki belgilangan tartibdagi hujjatlar taqdim qilinmagan, Komissiya ushbu talabgorning taklifini ko'rib chiqilmadi O'tmadi. |
| 13 | "BUXORO TAYYORLOV TA'MINOT" | 1. Vazirlar Mahkamasining 2021 yil 30 iyundgi 407-sodan qarori bilan tasdiqlangan 2 ¹ -ilova 38-bandida konvertda tegishli hujjatlar tanlov hujjatlari talablariga mos rasmiylashtirilmagan yoki belgilangan tartibdagi hujjatlar taqdim qilinmagan, Komissiya ushbu talabgorning taklifini ko'rib chiqilmadi O'tmadi. |

**Tanlov komissiyasi tomonidan ishtirokchilarning texnik va tijoriy takliflarini
baholash natijalari to‘g‘risida ma’lumot**

| Lot raqami | Maktabgacha ta’lim tashkiloti raqami | 1 o‘rin | 2 o‘rin |
|-----------------------|---|---------------------------------|---------------------------------|
| 41-lot | 10,16,19 | "Jondor Go`sht Ta`Minot" | "Mazzali Taom Tayyorlov" Chp |
| 42-lot | 23,25,43,46,86 | "Mazzali Taom Tayyorlov" Chp | "Jondor Go`Sht Ta`Minot" |
| 43-lot | 54,61,78,82 | - | - |
| 44-lot | 50,63,74,77 | "Abdumalik baraka servis" | "Jondor Go`Sht Ta`Minot" |
| 45-lot | 34,55,59,71,87 | - | - |
| 46-lot | 8,11 | "Mazzali Taom Tayyorlov" Chp | "Jondor Go`Sht Ta`Minot" |
| 47-lot | 1,8 | - | - |
| 48-lot | 12,21,22,26,28,29 | “Radost Grand” Mchj | "Yorqin Tong" Mchj |
| 49-lot | 30,31 | - | - |
| 50-lot | 2,8,11,26,30,32 | - | - |
| 51-lot | 44,78,79 | - | - |
| 52-lot | 6,8,12,46 | - | - |
| 53-lot | 7,18 | - | - |
| 54-lot | 8,26 | - | - |
| 55-lot | 14,8,17,20 | - | - |
| 56-lot | 1,4,9,14,23 | - | - |